

ADABIYOTDA DARAXT OBRAZINING BADIY TALQINI

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF A TREE IN LITERATURE

Rahmataliyeva Feruza

Fargʻona davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy adabiyotda badiiy detal darajasidan obraz darajasigacha ifodalanuvchi daraxt obrazining badiiy talqini tadqiq etiladi. Daraxtlarning mifologik, ramziy va estetik xususiyatlari folklor va yozma adabiyot materiallari asosida tahlil qilinadi. Daraxtlar turli xalqlar adabiyoti va madaniyatida turli xil ramzlar, milliy-madaniy qadriyatlar timsoli sifatida namoyon boʻladi. Daraxt detail badiiy adabiyotda uch avlodni ifodalovchi timsol sifatida ham koʻriladi. Daraxt bilan bogʻliq afsona, rivoyatlar xalqlar adabiyoti taraqqiyotida muhim oʻrin tutadi. Chunki ular xalqning kelib chiqishi, dunyoqarashi, iqlimiy va madaniy xususiyatlarini birlashtiradi. Tadqiqot natijasida daraxt timsolining badiiy tafakur taraqqiyotidagi oʻrni hamda uning milliy xoslanish jihatlari aniqlandi

Abstract

This article studies the artistic interpretation of the image of a tree, which is expressed in fiction from the level of artistic detail to the level of image. The mythological, symbolic and aesthetic properties of trees are analyzed based on folklore and written literature materials. Trees appear as various symbols and national-cultural values in the literature and culture of different peoples. The tree is also seen as a symbol representing three generations in detail fiction. Legends and legends related to trees play an important role in the development of folk literature. Because they combine the origin, worldview, climatic and cultural characteristics of the people. As a result of the study, the role of the tree symbol in the development of artistic thought and aspects of its national identity were identified.

Kalit soʻzlar: Daraxt obrazi, milliy xoslanish, folklor, timsol, obraz, ramz, mifologiya, badiiy talqin

Keywords: Tree image, national identity, folklore, emblem, image, symbol, mythology, artistic interpretation

Badiiy adabiyotda tabiat unsurlari insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi va ruhiyatini ifodalovchi muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. Shunday obrazlardan biri daraxt timsoli bo'lib, u qadim zamonlardan boshlab xalq og'zaki ijodi, mifologik tasavvurlar va yozma adabiyotda o'ziga xos ramziy ma'nolar kasb etib kelgan. To xalq og'zaki ijodidan tortib zamonaviy adabiyotga qadar daraxtlarga turli ramziy-falsafiy ma'no yuklab kelinmoqda. Daraxt obrazi turli xalqlar madaniyatida hayot, barhayotlik, avlodlar davomiyligi, muqaddaslik, donishmandlik va tabiat bilan inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Badiiy adabiyotda daraxt timsolini uch avlod umriga ham qiyos qiladilar. Daraxtning ildizlari ota-bobolar, ajdodlarni ifoda etsa, tanasi, shoxlari o'rtancha avlod, yaproqlari uchinchi, eng yangi avlod sifatida talqin qilinadi. Adabiyotda daraxtning uch makonni birlashtirish xususiyatidan ham mohirona foydalaniladi, ya'ni yer osti, yer usti va osmon. Badiiy adabiyotda daraxt timsoli shunchaki badiiy detal bo'lib qolmasdan inson hayoti, millat haqida tushuncha ham anglatib keladi. Xalqimizning daraxtlarga chuqur e'tiqodlari qadimga borib taqaladi. Ibtidoiy ajdodlarimiz daraxtlarning mevali va mevasiz bo'lishini kuzatgach, ularni batamom inson kabi deb o'ylagan. O'lis o'tmishda ajdodlarimizning daraxtlar bilan bog'liq bunday dastlabki kuzatishlari, tajriba va tasavvurlari ularga nisbatan hozirgi munosabatlarning shakllanishida o'ziga xos asos vazifasini o'tagan. Qadimgi ajdodlarimiz mevali, yoqimli hidli daraxtlar yaxshi ruh sohibi, aksincha, mevasiz va yoqimsiz hidli daraxtlar yomon ruhlar qo'nim topgan manzil sifatida odamzotga yo baxt, yo baxtsizlik, turli-tuman kasalliklar-u kulfatlarni keltiradi, deb tushunganlar.

Jahon xalqlari adabiyoti folklorida ham daraxtlarning turli mifologik qarashlar, diniy e'tiqodlar timsoli ekanligini ko'rish mumkin. Quyida ba'zi daraxtlarning millatlararo xoslanishiga misol keltiramiz:

Majnuntol – o‘zbek mumtoz adabiyotida keng qo‘llanadi, bosh egib turgan oshiq, ayriliq va firoq vaqtlarida oshiqqa hamdard, o‘z yorini kutayotgan suluv qiz, sochlari yoyilgan ma’shuqa obrazlarida namoyon bo‘ladi.

Chinor – o‘zbek adabiyotida uzoq umr ko‘rganligi tufayli keksa yoshli nuroniy sifatida gavdalanadi. Bardoshli, salobatli, ko‘pni ko‘rgan qariya timsolida Asqad Muxtorning “Chinor” romanida ko‘ra olamiz.

Sarv – o‘zbek va fors mumtoz adabiyotida to‘g‘rilik, ozodlik, sarvqomatlik timsoli, Yor o‘z ma’shuqasi qaddini sarvga mengzaydi.

Eman – Britaniya va ko‘plab Yevropa xalqlarida – qudrat, matonat, mustahkam iroda ramzi. Ingliz romanlarida ko‘pincha qirollik hokimiyatiga ishora qilingan.

Qayin – Beryoza deb ham ataluvchi daraxt rus adabiyotida tabiatning go‘zalligi, yorning qaddi nozikligi kabi badiiy-estetik xususiyatlarni ifoda etadi. Vatan ramzi sifatida, unga bo‘lgan sog‘inchni ifoda etish uchun murojaat qiladilar. Bundan tashqari, oq tanasi, yaltiroq yaproqlari bilan ayol timsolini ifodalab keladi.

Qayrag‘och – Skandinaviya mifologiyasi va dostonlarida juda ko‘p uchraydi. Milliy daraxt timsoli hisoblanadi. “Dunyo daraxti” deb ataladi. Butun koinot bilan yerni bog‘lab turuvchi sehrli kuchlar bilan hamohang tasvirlanadi.

Sakura (Olcha) – yapon milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi mazkur daraxt yapon adabiyotida hayotning o‘tkinchiligi, go‘zallik, jasorat (samuraylar) ruhini anglatadi.

Daraxt obrazi o‘zbek adabiyotida milliy o‘ziga xoslik kasb etadi. Xususan, Shodiqul Hamroning “Hovlidagi daraxt” hikoyasida aynan daraxt timsoliga hurmat butun ajdodlar ruhiga hurmat sanaladi. Hikoyada daraxt obrazi ma’naviy qadriyatlar, oilaviy an’analar, ajdodlar merosini anglatib kelgan. Bosh qahramon shunday eslaydi: “Bobom qo‘lida olib yuradigan asosini ariqning bo‘yiga suqib, tahorat olgani bir zumga o‘tirganida daraxt o‘zidan kurtak chiqarib boshlabdi, shunda bobom, men senga jabr qilibman-ku, yashnashni istabsan mayli qolaver, deydi”. Mazkur tasvir daraxtning bobosi va butun oila uchun

naqadar muqaddas ekanligini ko'rsatadi. Qishloqqa kelgan, daraxtning gullari va mevalariga hasad ko'zi bilan qarovchi Muhojir ismli qahramon asar davomida daraxtni zaharlaydi. Qurish arafasidagi daraxtni ildiziga solingan dori tufayli saqlab qolishadi. Obrazlardagi ramzni ko'rib chiqadigan bo'lsak, Daraxt – milliylik, qadriyat, yosh avlod. Bobo – yurtning yo'l boshchisi, daraxtning qo'riqllovchisi. Muhojir – chetdan kelgan yot g'oyalarni singdirmoqchi bo'lgan begona. Muhojir so'zi hijrat qilgan, bir yerdan boshqa yerga ko'chgan, degan ma'nolarni anglatadi. Muallif nom tanlashda muhojir so'zining "chetdan kelgan" ma'nosiga ko'proq urg'u qaratadi. Asar g'oyasi sifatida yosh avlodni, milliy qadriyatlarni, o'zlikni hech qachon chetdan kelgan yot g'oyalar, hasad ko'zi bilan boquvchi insonlarga topshirib qo'ymaslik kerak degan xulosani olish mumkin. Asar yakunida qovjirab qolgan daraxtni aynan ildizlariga solingan dori orqali davolashga harakat qilish voqeasi ham o'ziga xos ramziylik kasb etadi. Daraxtning ildizlari ajdodlar va ota-bobolar timsoli ekanligi yuqorida ta'kidlab o'tildi. Shuni hisobga olsak, yosh avlodni, butun millatni, kelajakni milliy o'zligini anglagan insongina saqlab qolishi mumkin, degan xulosa chiqariladi. Yozuvchi Shodiqul Hamro birgina ko'hna daraxt timsoli orqali ham ma'naviy, ham ijtimoy jihatdan yuksak g'oyalarni singdirgan.

O'zbek she'riyatida daraxt obrazi turli falsafiy ma'nolar kasb etadi. Xususan, Zulfiya ijodida "Majnuntol" nomli she'rni uchratamiz.

Daraxt ham insoniy erdan olar jon,
Inson qachon erdan ketgan uzilib?
Majnuntolda zilol shodlik bir jahon:
Yashaydi tuproqqa sadoqat bo'lib.

Mazkur misralarda daraxt obraz darajasiga ko'tarilgan. U ham inson kabi yerdan uzoq yashay olmasligi, yerdan joniga jon olishi tasvirlangan. Daraxt va insonning ruhan bir butun bo'lishi, bir-biriga mengzashi, ikkovi ham yerdan ozuqa olishi go'zal poetik qolipga solingan. Mazkur bir butunlikka misol sifatida shoira majnuntolni keltiradi. U o'zida zilol shodlikni tuymoqda. Zilol sifati majnuntolning suv bo'yida o'sishiga ishora. Majuntol zilol

suvga hamohang tarzda zamindan ham quvvat oladi, tuproqqa sadoqat bilan yashaydi. Mazkur misralarda Zulfiyaxonim ichki bir dardini ham ramzlar vositasida tasvirlagan. O‘zini majnuntol, ya’ni suv bo‘yida yorini kutayotgan go‘zal sifatida bilsa, yer bag‘rida yotgan sevimli insoni Hamid Olimjonga sadoqat bilan yashayotganini ham aytib o‘tadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, daraxt obrazi badiiy adabiyotda, xalqlar madaniyatida va jamiyatida muhim o‘rin egallaydi. Lirik janrlarda daraxt obrazi lirik qahramon ichki hissiyotlarini ifodalasa, nasriy asarlarda milliy o‘ziga xoslik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zulfiya. Tong bilan shom aro. – Toshkent: Sharq, 2005
2. O‘rayeva D., Rustamova G. O‘zbek folklorida daraxtlar obrazi. – Buxoro, 2016
3. Oripova G. Ayol ijodkorlar she’riyatida daraxt obrazi tasviri. // FarDU ilmiy xabarlar. Tom 31, 102-103-b
4. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shodiqul-hamro-1965/shodiqul-hamro-hovlidagi-daraxt-hikoya>